MURAKKAB TARKIBLI TURG‘UN BIRIKMALAR VA PAREMIYALAR

Kamila Alisherovna Artikxodjayeva
kamilaartikxodjayeva@gmail.com
1-Umumta‘lim maktabioliy toifali
Ingliz tili o‘qituvchisi
Tel:998997809571

Annotatsiya: *Ushbu maqolada murakkab tarkibli turg‘un birikmalar va paremiyalar tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Turg‘un birikmalarning shakliy va ma’no jihatlari, ularning nutqdagi vazifasi hamda milliy-madaniy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, paremiyalar – maqol va matallar, hikmatli iboralar xalq donishmandligining ifodasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda turli olimlarning nazariy qarashlari asosida ilmiy izohlar berilgan va misollar orqali mavzu yanada boyitilgan.*

Tayanch iboralar: *murakkab tarkibli turg`un birikmalar, paremiyalar, maqollar,frazeologik birikmalar, idiomatik birikmalar, frazeologizm, matallar.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются сложные устойчивые словосочетания и паремии с лингвистической точки зрения. Анализируются структурные и семантические особенности фразеологизмов, их функции в речи, а также национально-культурные аспекты. Особое внимание уделяется паремиям – пословицам, поговоркам и афоризмам как отражению народной мудрости. В исследовании приводятся научные подходы различных учёных и иллюстративные примеры, углубляющие содержание темы.*

Ключевые слова: *сложные устойчивые словосочетания, паремии, пословицы, фразеологизмы, стишки.*

Annotation: *This article examines complex fixed expressions and paremias from a linguistic perspective. It explores the structural and semantic features of phraseological units, their role in speech, and their national-cultural specificity. Special attention is given to paremias – proverbs, sayings, and aphorisms – as a reflection of folk wisdom. The study is based on theoretical views of various scholars and enriched with illustrative examples to provide a deeper understanding of the topic.*

Key words: *complex fixed expressions, paremias, phraseological units, proverbs, sayings, aphorisms.*

Kirish. Til tizimidagi frazeologik qatlam, ayniqsa murakkab tarkibli turg‘un birikmalar, so‘zlovchi nutqini obrazli va ta’sirchan qilish bilan bir qatorda uni milliy

tafakkur va madaniyatning yorqin aksini ham namoyon etadi. Paremiyalar esa maqol va matallar, hikmatli iboralar – xalq donishmandligi, axloqiy qarashlari hamda ijtimoiy-ma‘naviy qadriyatlarining ixcham, aniq va obrazli ifodasidir. Murakkab tarkibli turg‘un birikmalar va paremiyalarni lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish til tizimining ichki qonuniyatlarini aniqlash, milliy-madaniy semantikaning xususiyatlarini ochib berish hamda tarjimashunoslik amaliyotida samarali qo‘llash imkonini beradi. Shu boisdan mazkur maqolada ushbu birliklarning shakliy, mazmuniy va funksional jihatlari nazariy manbalar hamda amaliy materiallar asosida ilmiy tahlil qilinad

Asosiy qism. Tilshunoslikning muhim bo‘limlaridan biri frazeologiya bo‘lib, u xalqlarning milliy tafakkuri, madaniyati va tarixiy tajribasini ifodalovchi turg‘un birliklarni o‘rganadi. Turg‘un birikmalar tilning leksik boyligini yanada kengaytiruvchi, unda obrazlilik, emotsionallik va ekspressivlikni ta‘minlovchi vositalardan biridir. Xususan, murakkab tarkibli turg‘un birikmalar tilning eng qadimiy qatlamlaridan bo‘lib, ular ko‘p komponentli tuzilishi, ko‘chma ma’noliligi va sintaktik jihatdan murakkabligi bilan ajralib turadi.

Murakkab turg‘un birliklarning o‘rganilishi yigirmanchi asrda jadal rivojlandi. Jahon tilshunosligida bu sohada Sh.Balli frazeologiya atamasini tilshunoslikka olib kirgan bo‘lsa, rus tilshunosligida V.V.Vinogradov frazeologizmlarni tasniflashning ilmiy asoslarini ishlab chiqdi. Keyinchalik A.I.Smirnitskiy, N.M.Shanskiy, A.V.Kuninlarning ishlari frazeologik birliklarning tabiatini izohlashda muhim manba bo‘ldi. Ingliz tili frazeologizmlarini maxsus tadqiq qilgan olimlardan A.V.Kunin alohida e‘tiborga molikdir.

O‘zbek tilshunosligida esa Sh.Rahmatullayev frazeologiyani alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllantirib, o‘zbek tilidagi turg‘un birikmalarning lug‘atlarini tuzgan, nazariy asoslarini ishlab chiqqan tilshunos sifatida tanilgan. Keyingi yillarda A.Madvaliyev, N.Mahmudov, M.Mirtojiyev, H.Dadaboyevlarning ilmiy izlanishlari o‘zbek frazeologiyasining chuqurroq o‘rganilishiga zamin yaratdi.

Murakkab tarkibli turg‘un birikmalar o‘zining ma‘no yaxlitligi, struktura murakkabligi, milliy-madaniy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular so‘zlashuv tilida ham, badiiy asarlarda ham ko‘p qo‘llanib, nutqqa obrazlilik, ta’sirchanlik va estetik jilo beradi. Shu boisdan ham ushbu birliklarni chuqur o‘rganish, ularning tipologiyasi, semantik va struktur xususiyatlarini aniqlash zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.[1] Tilshunoslikda turg‘un birikma (frazeologizm) — tarkibi va shakli o‘zgarmas, ma‘nosi yaxlit bo‘lgan iboralar. Ular orasida murakkab tarkibli turg‘un birikmalar alohida tur sifatida ajratiladi.Shunga ko‘ra uar ikki yoki

[1] Mamatov A. O‘zbek tilida turg‘un birikmalar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005

undan ortiq so‘zlardan tashkil topadi va ma‘nosi so‘zlarning alohida ma‘nosidan kelib chiqmaydi, balki umumiy yangi ma‘no aks ettirgan holda keladi. Sintaktik jihatdan esa ko‘pincha so‘z birikmasi yoki gapga teng bo‘ladi va obrazli, ko‘chma ma‘no bilan ajralib turadi.[2] Murakkab tarkibli turg‘un birikmalarning turlariga to‘htalib o‘tadigan bo‘lsak: 1) Murakkab frazeologik birikmalar bu so‘zlashuvda ishlatiladigan, ko‘p komponentli barqaror iboralardir,masalan: “*Tilini tishlab olish, og‘ziga talqon solib olmoq, yuragi orqasiga o‘tmoq”.* 2) Frazeologik gaplar (maqol va matallar) – murakkab tarkibli, tayyor holda qo‘llanadigan sintaktik birliklar hisoblanadi, masalan: “*Oq terakmi, ko‘k terak – bizdan sizga kim kerak, Yomon otni mingan yiqilar”.3)* Murakkab idiomatik birikmalar – milliy xususiyatni ifodalovchi, ko‘p hollarda tarjima qilinishi qiyin bo‘lgan turg‘un birliklar: *“Uning qo‘li baland, gapga chechan desangiz, xato qilmagan bo‘lasiz”.*[3]

Ingliz tilshunosligida murakkab tarkibli turg‘un birikmalarning o‘rganilishiga kata hissa qo‘shgan olimlardan biri Ch.Bally hisoblanib, u birinchi bor frazeologiya terminini tilshunoslikka kiritgan. Keyinchalik ingliz frazeologizmlarini A.V.Kunin o‘rgangan bo‘lib, ingliz tilidagi frazeologizmlar lug‘atini tuzgan va keng tadqiq qilgan. Rus tilshunosligiga to‘htaladigan bo‘lsak, V.V.Vinogradov frazeologizm nazariyasini yaratgan tilshunos olim bo‘lib, frazeologik birliklarni tasniflagan bo‘lsa, A.I.Smirnitskiy, N.M.Shanskiy, A.V.Kuninlar frazeologiyaning rivojiga katta hissa qo‘shgan olimlar hisoblanishadi.[4] Shu bilan bir qatorda o‘zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev, A.Madvaliyev, N.Mahmudov, M.Mirtojiyev, H.Dadaboyevlarning turg‘un birikmalarni o‘zbek tilida izchil o‘rgangan tilshunoslar sifatida tilga olamiz.

Murakkab tarkibli turg‘un birikmalar tilimizning eng obrazli qatlamlaridan biri. Ularni o‘rganish orqali xalqning dunyoqarashi, milliy tafakkuri, madaniy qadriyatlari namoyon bo‘ladi. Shu bois ular nafaqat o‘zbek, balki rus va ingliz tilshunosligida ham alohida tadqiqot mavzusi bo‘lib kelmoqda.

Paremiyalar xalq donoligining ixcham shakldagi ko‘rinishi bo‘lib, ular tilshunoslik, folklorshunoslik va madaniyatshunoslik kesishmasida o‘rganiladi*: “Mehnat qilgan – to‘yadi, mehnat qilmagan – uyaladi.” “Olma pish, og‘zimga tush.” “Без труда не вытащишь и рыбку из пруда.” (Mehnatsiz hatto ko‘lmakdan ham baliq tutib bo‘lmaydi.) “Яблоко от яблони недалеко падает.” (Olma daraxtidan uzoqqa*

[2] Mieder, W. (2004). Proverbs: A Handbook. London: Greenwood Press, Mieder, W. (2005). A proverb is worth a thousand words: Folk wisdom in the modern mass media. Proverbium, vol. 22, - 167 p.

[3] Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998.

[4] Бакиров П.У. Книга в пословицах разных народов мира “Илм сарчашмалари” илмий – методик журнал № 10. Урганч – 2020. – 202 б.

tushmaydi.) "No pain, no gain." (Mehnatsiz natija bo'lmaydi.)"The apple doesn't fall far from the tree." (Olma daraxtidan uzoqqa tushmaydi.)[5]

Vinogradov va Permyakov kabi olimlar ularni nazariy asosda izohlagan bo'lsa, o'zbek tilshunoslari esa ularni milliy tafakkur va qadriyatlar bilan bog'lab tahlil qilganlar. Paremiyalar haqida so'z yuritar ekanmiz, ular xalq og'zaki ijodining qadimiy va asosiy turlaridan biri bo'lib, maqol, matal, hikmatli so'z, topishmoq va qanotli iboralarni o'z ichiga oladi. Tilshunoslikda paremiyalar frazeologiyaning mustaqil bo'limi sifatida qaraladi va ular xalqning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, hayotiy tajribasi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Paremiyalar til tizimida turg'un birikmalardan farqli o'laroq, butun bir gap ekvivalentida bo'ladi. Ya'ni ular grammatik jihatdan tugallangan hukm, ma'no jihatidan esa xalqning umumiy tajribasini ifodalaydi. G'arb va rus tilshunosligida paremiyalarni o'rgangan olimlardan Aristotel qadimiy davrdayoq hikmatli so'z va maqollarni ritorika san'atida muhim nutq vositasi sifatida ta'riflagan va "Ritorika"da maqol va hikmatlarni nutq san'atining muhim qismi deb baholagan: *"Do'st – ikkinchi men"* kabi qadimiy hikmatlarni nutqning ishonchliligini oshirish vositasi sifatida ko'rgan bo'lsa,[6] F.de Sossyur tilda turg'un birliklarning o'rni haqida umumiy nazariy asos yaratib bergan.[7]

Rus olimlaridan V.V.Vinogradov rus frazeologiyasi va paremiyologiyasini chuqur o'rgangan, maqol va matallarni frazeologizmlardan ajratib ko'rsatgan tilshunos olimdir. Frazeologiyani nazariy asosda o'rganib, maqollarni mustaqil paremiyalarga ajratgan. *"Без труда не вытащишь и рыбку из пруда"* bu kabi birliklarni frazeologizm emas, balki tugallangan paremiyadir, deya farqlaydi. G.L.Permyakov paremiologiya ilmiy maktabining asoschilaridan biri hisoblanadi va "Основы структурной паремиологии" asarida maqol va matallarning tipologik, semantik va struktur xususiyatlarini tahlil qilib beradi. Shuningdek, B.A.Larin maqol va matallarni xalq ijodiy tafakkurining lingvokulturologik manbai sifatida izohlab o'tgan tilshunos olim sifatida qaraladi.

O'zbek tilshunosligida ham Abdulla Avloniy maqol va matallarning tarbiyaviy ahamiyati haqida yozib, "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida maqollar tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatgan. *"Yaxshi do'st – mol-dunyo, yomon do'st – balo-qazo"* maqolini tarbiya vositasi sifatida izohlagan. Folklyorshunos H.Zarifov o'zbek maqol

[5] Mieder, W. (2005). A proverb is worth a thousand words: Folk wisdom in the modern mass media. Proverbium, vol. 22, - 167 p.

[6] Madayev O, Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – Toshkent. 2010 – B.212 b.

[7] Бакиров П.У. Книга в пословицах разных народов мира "Илм сарчашмалари" илмий – методик журнал № 10. Урганч – 2020. – 202 б.

va matallarini to‘plagan va tahlil qilgan bo`lib, *“Mehnat – baxt kaliti”* kabi maqollarni xalq og‘zaki ijodining muhim turi sifatida belgilagan. Oybek ham o‘z asarlarida paremiologik birliklarni xalq ruhiyatining ifodasi sifatida tahlil qilib beradi. Shu jumladan yana bir qator olimlar H.Zarifov va M.Afzalov o‘zbek maqol va matallarini xalq og‘zaki ijodi sifatida to‘plagan va izohlagan. A. Madrahimov, M. Qodirova, Sh. Rafiqov – zamonaviy o‘zbek tilshunosligida paremiyalarni lingvistik va madaniy-pragmatik jihatdan tadqiq qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Mamatov A. O‘zbek tilida turg‘un birikmalar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.
2. Karimov Sh. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
3. Berdiyorov H., Rasulov R., Uzbek tilining paremiologik lug‘ati, T., 1984. 119 p.
4. Лебедова Л.А. Устойчивые сравнение русского языка. Краткий тематический словарь. – Краснодар: Рубанский ГУ, 2003. – С. 300.
5. Бойко Л.Г. Культурно маркированное содержание устойчивых сравнений русского языка: Дисс. …канд. филол. наук. – Волгоград, 2000. -218 с.
6. Madayev O, Sobitova T. Xalq og’zaki poetik ijodi. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – Toshkent. 2010 – B.212 b.
7. Бакиров П.У. Книга в пословицах разных народов мира “Илм сарчашмалари” илмий – методик журнал № 10. Урганч – 2020. – 202 б.
8. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик луғати. – Т.: ФАН, 2006 // http:// uz.denemetr.com /docs /768/index-70996.html
9. Hazratqulova O.A. “Kognitologik konseptning tilshunoslikda tutgan o‘rni” - Хоразм маъмун академияси ахборотномаси // 2022-11/4//Хива-2022
10. Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998.
11. Mieder, W. (2004). Proverbs: A Handbook. London: Greenwood Press, Mieder, W. (2005). A proverb is worth a thousand words: Folk wisdom in the modern mass media. Proverbium, vol. 22, - 167 p.